



## IJTIMOYIY TARMOQLARDA TURDOSH HUQUQLARNI HIMOYA QILISHNING FUQAROVIIY-HUQUQIIY USULLARI

BAHROMOV Lazizjon Azizjon o'g'li

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0002-9061-6572

E-mail: laziz.bakhromov@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18383256>

### ARTICLE INFO

Received: 31<sup>st</sup> December 2025

Accepted: 11<sup>th</sup> January 2026

Published: 26<sup>th</sup> January 2026

### KEYWORDS

*turdosh huquqlar, ijtimoiy tarmoqlar, fuqaroviy-huquqiy himoya, ijrochilik, fonogramma, axborot vositachisi, raqamli platformalar.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlar sharoitida turdosh huquqlarning buzilishi bilan bog'liq dolzarb muammolar hamda ularni fuqaroviy-huquqiy usullar orqali himoya qilish mexanizmlari tahlil etilgan. Raqamli platformalarning rivojlanishi natijasida ijrochilar, fonogramma ishlab chiqaruvchilar va efir tashkilotlarining huquqlarini amalga oshirishda yuzaga kelayotgan huquqiy muammolar yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoq platformalarining axborot vositachisi sifatidagi huquqiy javobgarligi, Yevropa Ittifoqi va AQSh tajribasi misolida qiyosiy tahlil qilingan hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha xulosalar berilgan.*

Bugungi kunda internet va raqamli texnologiyalarning jadal sur'atlarda rivojlanishi intellektual faoliyat natijalarining yaratilishi, tarqatilishi va iste'mol qilinish shakllarini tubdan o'zgartirmoqda. Mazkur jarayon, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashinuvi va ijodiy kontentdan foydalanishning ommalashuvi bilan bog'liq holda, turdosh huquqlar institutining huquqiy ahamiyatini sezilarli darajada oshirdi. Ilmiy doktrinada qayd etilishicha, raqamli muhitda turdosh huquqlar mualliflik huquqi bilan bir qatorda mustaqil huquqiy institut sifatida shakllanib, ijodiy faoliyat natijalarini ommaga yetkazishda ishtirok etuvchi shaxslarning manfaatlarini muhofaza qilishga xizmat qiladi [4]. Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat mualliflik huquqi obyektlari, balki ijrochiliklar, fonogrammalar hamda audiovizual mahsulotlarning keng auditoriyaga tezkor va transchegaraviy tarzda yetkazilishini ta'minlayotgan universal raqamli makonga aylandi. Natijada turdosh huquqlarni himoya qilish masalasi zamonaviy fuqarolik huquqining dolzarb va murakkab yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Turdosh huquqlar huquqiy mohiyatiga ko'ra mualliflik huquqi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ijodiy asarlarni ommaga yetkazish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi subyektlarning huquqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar majmuasini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunida turdosh huquqlar subyektlari, ularning huquqlari hamda ushbu huquqlarning amalga oshirilishi va muhofazasi bilan bog'liq asosiy qoidalar belgilangan bo'lib, bu normalar ijodiy faoliyatning iqtisodiy va nomoddiy qiymatini ta'minlashga xizmat qiladi [3]. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar sharoitida turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, jonli ijrolarning videoyozuvlari, fonogrammalar, qisqa audiovizual kontent va audioeshittirishlarning huquq egalarining roziligisiz joylashtirilishi, qayta ishlanishi yoki monetizatsiya qilinishi raqamli muhitga xos yangi huquqbuzarlik shakllarini yuzaga keltirmoqda. Kontentning tezkor tarqalishi va ko'p marotaba nusxalanishi huquq

egalarining o'z huquqlarini nazorat qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab, ularga moddiy va nomoddiy zarar yetkazish xavfini kuchaytiradi.

Natijada ijtimoiy tarmoqlar turdosh huquqlarni amalga oshirish va ommalashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda, ularni buzish xavfini ham sezilarli darajada oshirmoqda. Bu holat turdosh huquqlarni, ayniqsa fuqaroviy-huquqiy mexanizmlar orqali samarali himoya qilish masalasini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

### **Ijtimoiy tarmoqlarda turdosh huquqlarning buzilish turlari**

Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida turdosh huquqlarning buzilishi ko'lami, shakllari va huquqiy oqibatlari jihatidan an'anaviy huquqbuzarliklardan sezilarli darajada farq qiladi. Raqamli platformalarning ochiqligi va kontent almashinuvi tezligi natijasida turdosh huquqlar obyektlari ko'pincha huquq egalarining roziligisiz ommaga yetkazilmoqda. Bunday holatlar, avvalo, ijro va fonogrammalarning ijtimoiy tarmoqlarda ruxsatsiz joylashtirilishi orqali namoyon bo'lib, huquq egalariga tegishli mutlaq huquqlarning bevosita buzilishiga olib keladi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, kontentning ochiq raqamli platformalarda joylashtirilishi uni cheklanmagan doiradagi shaxslarga taqdim etish sifatida baholanadi va bu holat shaxsiy foydalanish doirasidan chiqib ketadi [4].

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda turdosh huquqlar obyektlarining noqonuniy ko'paytirilishi va qayta tarqatilishi keng tarqalgan bo'lib, bu kontentni nusxalash, qayta yuklash yoki boshqa platformalarda takroran joylashtirish orqali amalga oshiriladi. Raqamli muhitning texnologik xususiyatlari, xususan algoritmik tavsiyalar va repost mexanizmlari bunday huquqbuzarliklarning qisqa vaqt ichida keng auditoriyaga tarqalishiga xizmat qiladi. Natijada huquq egalarining o'z huquqlaridan foydalanish va ularni nazorat qilish imkoniyatlari sezilarli darajada cheklanadi. Turdosh huquqlar buzilishining yana bir muhim jihati ijtimoiy tarmoqlarda kontentdan tijorat maqsadlarida foydalanish bilan bog'liqdir. Ko'plab platformalarda reklama joylashtirish, monetizatsiya dasturlari va obuna asosida daromad olish mexanizmlarining mavjudligi huquq egalarining roziligisiz ijro va fonogrammalardan iqtisodiy foyda ko'rishga olib kelmoqda. Bunday amaliyot nafaqat huquq egalarining mulkiy manfaatlariga zarar yetkazadi, balki adolatli raqobat tamoyillarining buzilishiga ham sabab bo'ladi, bu esa raqamli bozorda huquqiy muvozanatning izdan chiqishiga olib kelishi mumkin [1].

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda ijroni buzib ko'rsatish holatlari ham alohida e'tiborni talab etadi. Montaj, remiks yoki boshqa texnik o'zgartirishlar kiritish orqali ijrochining ijodiy niyati buzilishi, shuningdek uning sha'ni va obro'siga putur yetkazilishi ehtimoli mavjud. Shu bilan birga, manbani ko'rsatmasdan tarqatish, ya'ni ijrochi yoki fonogramma ishlab chiqaruvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirish ham turdosh huquqlar buzilishining keng tarqalgan shakllaridan biri bo'lib, u huquq egasining tan olinishi huquqini cheklaydi va ijodiy faoliyatga nisbatan adolatsiz munosabatni shakllantiradi.

### **Turdosh huquqlarni himoya qilishning fuqaroviy-huquqiy usullari**

Turdosh huquqlarni himoya qilish tizimida fuqaroviy-huquqiy himoya alohida va ustuvor o'rin egallaydi. Ushbu himoya turi huquq egalarining buzilgan huquqlarini tiklash, yetkazilgan moddiy va nomoddiy zararlarni qoplash hamda kelgusida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan huquqiy choralar majmuasini o'z ichiga oladi. Ilmiy doktrinada qayd etilishicha, fuqaroviy-huquqiy himoyaning asosiy vazifasi jazolashdan ko'ra huquqiy muvozanatni tiklash va manfaatlar uyg'unligini ta'minlashdan iborat bo'lib, bu yondashuv ayniqsa raqamli muhit sharoitida turdosh huquqlarni himoya qilishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi [4].

Ijtimoiy tarmoqlarda turdosh huquqlar buzilgan hollarda huquq egasi, eng avvalo, huquqbuzarlikni to'xtatishga qaratilgan choralarni qo'llash huquqiga ega. Amaliyotda bu sudga murojaat qilish yoki bevosita ijtimoiy tarmoq platformasi operatoriga noqonuniy joylashtirilgan kontentni olib tashlash to'g'risida talabnoma yuborish orqali amalga oshiriladi. Raqamli huquq munosabatlarida keng qo'llanilayotgan "notice and takedown" mexanizmi

huquq egalariga tezkor va nisbatan kam xarajatli himoya vositasini taqdim etadi. Mazkur mexanizm huquq egalarining manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda, platformalarning axborot vositachisi sifatidagi majburiyatlarini amaliy jihatdan ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Turdosh huquqlarni himoya qilishda ma'naviy zarar instituti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijrochiliklar bilan bog'liq huquqbuzarliklar ijrochining sha'ni, qadr-qimmatini va ijodiy obro'siga putur yetkazgan hollarda, ma'naviy zarar undirilishi turdosh huquqlarning shaxsiy nomoddiy jihatlarni huquqiy muhofaza qilishning muhim shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv turdosh huquqlarning faqat iqtisodiy emas, balki shaxsiy manfaatlar bilan ham chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, huquq egasining sud tartibida o'z turdosh huquqlari mavjudligini tan oldirishi huquqiy aniqlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Sud orqali huquqni tan olish kelgusida shunga o'xshash huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qilib, nizoli munosabatlarda huquq egasining isbotlash yukini yengillashtiradi va uning huquqiy mavqei mustahkamlaydi. Shuningdek, fuqaroviy-huquqiy himoyaning muhim choralaridan biri sifatida kontentdan foydalanishni taqiqlash institutini ham ko'rsatish mumkin. Sud qarori asosida muayyan shaxsga yoki platforma operatoriga noqonuniy kontentdan foydalanishni taqiqlash huquqbuzarlikni davom ettirishga chek qo'yib, ijtimoiy tarmoqlarda qonuniylik va huquqiy tartibni mustahkamlashga xizmat qiladi [3].

#### **Ijtimoiy tarmoq platformalarining huquqiy javobgarligi**

Zamonaviy huquqiy doktrinada ijtimoiy tarmoq platformalarining huquqiy maqomi ularni to'g'ridan-to'g'ri huquqbuzar sifatida emas, balki axborot vositachisi (intermediary) sifatida baholash tamoyiliga asoslanadi. Bunday yondashuv platformalarning foydalanuvchilar tomonidan joylashtirilgan kontent ustidan dastlabki nazoratni amalga oshirmasligi bilan izohlanadi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, vositachi maqomi platformalarni avtomatik tarzda javobgarlikdan ozod etmaydi, balki ularning huquqbuzarlik to'g'risida xabardor bo'lishi va keyingi xatti-harakatlari huquqiy baholashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi [4]. Agar platforma turdosh huquqlarning buzilishi to'g'risida xabardor bo'lganidan so'ng ham noqonuniy kontentni olib tashlash yoki unga kirishni cheklash choralarini ko'rmasa, uning passiv vositachilik roli faol ishtirokchiga aylanishi va fuqaroviy-huquqiy javobgarlik yuzaga kelishi mumkin. Mazkur yondashuv xalqaro huquqiy amaliyotda ham o'z aksini topgan bo'lib, xususan, Yevropa Ittifoqining Raqamli yagona bozor to'g'risidagi direktivasi (DSM Directive) hamda AQShning Mualliflik huquqi to'g'risidagi raqamli mingyillik qonuni (DMCA) platformalarga huquqbuzarliklar to'g'risida xabardor qilingandan keyin tezkor va samarali choralar ko'rish majburiyatini yuklaydi [1]. Ushbu normalarning milliy qonunchilikka moslashtirilishi ijtimoiy tarmoqlarda turdosh huquqlarni samarali himoya qilishning muhim sharti hisoblanadi.

#### **Xorijiy tajriba va milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari**

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda turdosh huquqlarni himoya qilish samaradorligi texnologik va tashkiliy mexanizmlarning o'zaro uyg'unlashuviga bevosita bog'liq. Amaliyotda avtomatlashtirilgan kontent aniqlash tizimlari huquq egalariga tegishli fonogramma va audiovizual obyektlarni aniqlash orqali huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, suddan tashqari nizolarni hal etish mexanizmlarining rivojlanishi hamda kollektiv boshqaruv tashkilotlari faoliyatining kuchaytirilishi turdosh huquqlarni ommaviy tarzda boshqarish va himoya qilishda muhim institutsional asos sifatida e'tirof etiladi [2].

Milliy qonunchilikni takomillashtirish nuqtayi nazaridan, ijtimoiy tarmoqlarga nisbatan maxsus huquqiy majburiyatlarni belgilash zarurati tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, platformalarning huquqbuzarliklar to'g'risida xabardor bo'lgandan keyingi harakatlari, kontentni olib tashlash muddatlari va javobgarlik chegaralarini aniqlashtirish huquqiy aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, turdosh huquqlar buzilgan hollarda

undiriladigan kompensatsiya miqdorlarini aniq belgilash hamda onlayn huquqbuzarliklar bo'yicha sud amaliyotini rivojlantirish raqamli muhitda huquqiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar sifatida qaraladi [5]. Xorijiy tajribani milliy huquq tizimiga mos ravishda implementatsiya qilish ijtimoiy tarmoqlarda turdosh huquqlarni himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

**Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. Юлдашов А.А. Муаллифлик ҳуқуқини халқаро доирада муҳофаза қилишнинг муҳим жиҳатлари ва шартномавий-ҳуқуқий базани ривожлантириш, 2020.
2. Yuldashov A.A. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini taminlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi, 2023.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқлар тўғрисида”ги Қонуни (О'РҚ-42, 20.07.2006). — Lex.uz.
4. Щербак Н. Право интеллектуальной собственности: общее учение. Авторское право и смежные права 2-е изд. 2023.
5. Ерменко В., Авторское право и смежные права в государствах БРИКС. – 2020.

